


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



JAHON ADABIYOTI
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60110700 – O'zbek tili va adabiyoti

Fan/modul kodi JA1304	O'quv yili 2025-2026	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)
	Jahon adabiyoti	60	60

I. Fanning mazmuni.

Fanni o'qitishdan maqsad – jahon adabiyoti tarixining muhim poetik-estetik qirralarini mujassam qilgan adabiy asarlarni o'qitish orqali badiiy-falsafiy qarashlardagi nazariy-badiiy evolutsiyani ko'rsatib berish hamda badiiy adabiyot tarixi va adabiy-nazariy tafakkur tadrijining shaxs va jamiyat, hayotidagi o'mni va ahamiyatini olib berish talabalarning adabiy-estetik tafakkurni yuksaltirish, ilmiy mushohadalarning vujudga kelishji hamda nazariy jihatdan tahlil qilish va talqin ko'nikmalarini hosil qilish, faol ijodkorlik ruhi va mas'uliyatini shakllantirishdan iborat.

Fanni o'qitishning vazifasi – jahon adabiyoti namunalarining o'ziga xos milliy va an'anaviy xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish asosida bilim berish, yuksak saviyada yaratilgan badiiy adabiyot namunalarining bashariyat, millat va jamiyat ravaqidagi o'mni va ahamiyatini tushuntirish, badiiy adabiyotni tushunish va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Qadimgi Sharq adabiyoti

Shumer-Bobil adabiyoti, Misr adabiyoti, Eron adabiyoti, Hind adabiyoti, Xitoy adabiyoti. Mifologiyasi, adabiy namunalar, qadimgi Sharq xalqlari adabiyotining jahon adabiyotiga ta'sirimlasasi o'rganiladi.

2-mavzu. Antik davr Yunon adabiyoti

Yunon adabiyoti tarixi bilan tanishtirish. Yunon adabiyotining jahon sivilizatsiyasidagi o'mni va ahamiyati bilan tanishtirish. Antik adabiyot va madaniyatning tarixiy ahamiyati, yunon mifologiyasi, titanlar va qahramonlar to'g'risidagi afsonalar haqida ma'lumot berish. Qahramonlik eposlari, Homerning "Iliada" va "Odisseya" dostonlari, qadimgi yunon lirikasi yuzasidan tasavvur hosil qilish.

3-mavzu. Qadimgi Rim adabiyoti

Rim adabiyotining taraqqiyot bosqichlari, Rim adabiyoti tarixi bilan tanishtirish. Rim adabiyotining yunon adabiyoti bilan bog'liqligini, jahon sivilizatsiyasidagi o'mni va ahamiyatini tushuntirish. Keyingi davr Yevropa va jahon adabiyoti taraqqiyotida Rim adabiyotining o'mni, Rim shoirlari, Plavit va Terentsiy ijodi haqida ma'lumot berish

4-mavzu. O'rta asrlar Yevropa xalqlari adabiyoti

Lotin tilidagi adabiyot. O'rta asrlar qahramonlik eposi. Adabiyot va folklore. Roland haqida qo'shiq. Trubadurlar she'riyati. Zajal she'r shakli. Jo'mardlik (ritsarlik) adabiyoti. "Tristan va Izolda" haqida ma'lumot berish.

5-mavzu. Uyg'onish davri adabiyoti. Italiya va Fransiyada Uyg'onish davri adabiyoti

Ilk uyg'onish davri adabiyoti. Sonet janri. Sharq Renessansi tushunchasi. Sharq va G'arb aloqalarida tarjimalarning roli. Sharqning Yevropaga ta'siri. Dante Alegyeri ijodi. "Illohiy komediya". Italiya va Fransiyada uyg'onish davri adabiyoti. Petrarka ijodi. Jovanni Bokachcho va uning "Dekameron" asarida sharq motivlari. Rumiy, Navoiy va Bokachcho. "Dekameron"da Ibn Sino obrazi.

6-mavzu. Angliya va Ispaniyada Uyg'onish davri adabiyoti.

XV-XVI asrlar Angliyadagi tarixiy vaziyat. Ingliz-shotland balladalari. Tomas Mor ijodi. "Utopiya" asarida ijtimoiy adolat masalasi va barkamol jamiyat orzusi. XVII asr Angliya adabiyoti. Shekspir ijodi – Angliya uyg'onish adabiyotining cho'qqisi. Adabiyotshunoslikda Shekspir masalasi. Shekspir-dramaturg. Migel de Servantes ijodi. Don Kixot- "abadiy obraz" timsoli.

7-mavzu. Klassitsizm davri adabiyoti (XVII asr)

Jahon adabiyotida metodlar va adabiy oqimlarning paydo bo'lishi. Klassitsizm. Nikola Bualo va uning "Poetik san'at" asari. Rene Dekart. Janrlar nazariyasi. Uch birlik qonuni. Ispaniya adabiyoti klassitsizm. Ispaniyadagi ijtimoiy-siyosiy muhit va adabiy jarayon. Ispaniya madaniyatining "oltin asri" Lope de Vega va uning maktabi. Drama estetikasi. Kalderon ijodi. Diniy-falsafiy drama. Fransiyadagi ijtimoiy-siyosiy muhit va adabiy jarayon. Pyer Kornel dramaturgiysi. "Said" tragediyasida burch va tuyg'ular kurashi. Jan Batist Poklen (Molyer) komediyalari. "Tartyuf" tragikomediyasi. "Don Juan". Molyer komediyalarda xudbinlik, baxillik va ikkiyuzlamachilik illatlarining satirik manzarasi. Angliya adabiyotida klassitsizm. Angliyadagi ijtimoiy-siyosiy muhit va adabiy jarayon. Jon Milton she'riyati. "Yo'qotilgan jannat" poemasi.

8-mavzu. Ma'rifatchilik davri adabiyoti (XVIII)

"Ma'rifatchilik" tushunchasi. Ma'rifatchilik adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. Rokoko uslubi. Daniel Defo- yangi davr yevropa romanı asoschisi. "Robinzon Kruzo" – yangi zamon roman shakli namunasi. Jonatan Swift ijodi, Volter dramaturgiysi. Deni Didro romanlari.

9-mavzu. Romantizm (XIX asr)

Romantizm tushunchasining genezisi. Romantizm estetikasi. Romantizm adabiy yo'naliishi va uning taraqqiyot bosqichlari. Fridrix Shlegel- romantizm nazariyasining asoschisi. Nemis romantizmining o'ziga xos xususiyatlari. Volter SkotT-tarixiy roman asoschisi. Gordon Bayron she'riyati.

10-mavzu. Jahon adabiyotida realizm va tanqidiy realizm tamoyillari.
Realizm tushunchasi. Realizm estetikasi. Stendal, Onore de Balzak, Prosper Marime, Gyustav Flober va Charlz Dikkens ijodi. Ulardagi realizm tamoyillari

11-mavzu. Ijtimoiy-psixologik yo'nalishdagi realizm
Ijtimoiy-psixologik yo'nalishdagi realism: Gi de Mopassan, Jorj Meredit, Tomas Gardi, Genri Jeyms, Teodor Drayzer, Romen Rollan, Jek London.

12-mavzu. Naturalizm va simvolizm.
Naturalizm va simvolizm. Naturalizm prinsiplari. Emil Zolya maktabi. Simvolizm. Verlen (Fransiya) ijodi.

13-mavzu. Neoromantizm va estetizm.
Germaniya va Avstriyada neoromantizm. R.Vagner musiqali drammasi. Angliyada neoromantizm. J.Konrad, Artur Konan Doyl. Estetizm xususiyatlari. Oskar Uayld.

14-mavzu. XX asr jahon adabiyoti "Ommabop adabiyot"
Detektiv janr. Edgar Allan Po, Agata Kristi, Jorj Simenon, Stiven King. Ayollar romanı. Margerat Mitchel. Kollin Makkolou, Gabriel Garsiya Markes.

15-mavzu. Jahon adabiyotidagi adabiy metod va adabiy yo'nalishlar
Modernizm tushunchasi. Kafka ijodi. Neorealizm. Magik realism. Ekzistensializm. Sart, Kamyu, Ernest Xeminguey, Fisdjerald, Umberto Eko.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar
Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Antik adabiyot tushunchasi. Gomer ijodi.
2. Tragediy janri: Sofokl, Esxilva Yevripid. Ezop masallari
3. Rumiy, Navoiy va Bokachcho ("Masnaviyi ma'naviy", "Sab'ai sayyor", va "Dekameron" asarlarining tahlili misolida)
4. Ibn Sino, Ibn Rushd va Dante
5. Petrarka ijodi (sonetlari tahlili)
6. Umar Hayyom va Vilyam Shekspir
7. Klassitsizm nazariyasi. Ispaniya, fransuz va ingliz klassitsizmi.
8. Daniel Defo va Jonatan Swift ijodi
9. Gyote va uning "Faust" asari tahlili
10. Balzak ijodi va uning "Insoniyat komediysi", "Goreo ota" asarlari tahlili
11. Gi de Mopassan hikoyanavisligi, Teodor Drayzer "Amerika fojeasi" asari tahlili
12. Markes ijodi, "Yolg'izlikning yuz yili" asari tahlili
13. Akutagava Ryunoske ijodi (erkin tanlangan asari tahlili misolida)
14. Kobo Abe ijodi (erkin tanlangan asari tahlili misolida)
15. Dostoyevskiyning "Telba" asari tahlili

Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar
Mustaqil ta'lifni baho'lash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaly loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "Ramayana" xalq eposi
2. Gomerining "Odisseya" dostoni
3. F.Reblening "Gargantuya va Pantagryuel" asari
4. Stendal "Qizil va Qora"
5. Jek London "Martin Iden"
6. Mark Tven "Tom Soyerning sarguzashtlari"
7. Aleksandr Dyuma "If qal'asining mahbusi"
8. Mixail Bulgakov "Usta va Margarita"
9. Lev Tolstoy "Urush va tinchlik"
10. Lev Tolstoy "Tirilish"
11. Dostoyevskiy "Jinoyat va jazo"
12. M.Lermentov "Zamonamiz qahramoni"
13. A.S.Pushkin "Belkin qissalari"
14. Gustav Flober "Bovari xonim"
15. Jeyms Joys "Uliss"
16. Charlz Dikkens "Katta umidlar"
17. G.G.Marks "Yolg'izlikning yuz yili"
18. F.Shiller drammalari
19. Ernest Xeminguey "Chol va dengiz"
20. Umberto Eko asari tahlili
21. Gyote va uning "Faust" asari
22. Margaret Mitchel (AQSH) "Shamollarda qolgan hislarim"
23. Edgar Allan Po (AQSH) "Morg ko'chasidagi qotillik"
24. Gerbert Uels "Ko'rinnmas odam"

VII. Ta'lif natijalari (shakllanadigan kompetensiylar)
Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Jahon adabiyoti fani doirasida talabalarda jahon adabiyotining antic davrdan to bugungi kunga qadar bo'lgan taraqqiyot bosqichlari va tamoyillari haqida tasavvur hosil qilishi: (Bilim)
- Jahon adabiyoti kursini o'zlashtirgan talaba jahon adabiyoti taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy voqealar va ularning insoniyat badiiy tafakkuri tadrijiga ta'siri masalasini o'rganish; (ko'nikma)

	<ul style="list-style-type: none"> Jahon adabiyoti kursini o'zlashtirgan talaba jahon adabiyoti namunalarini badiiy tahlil eta bilish, ularda ko'tarilgan g'oyalarni va ilgari surilgan fikrlarni to'g'ri baholay olish, globallashuv jarayoni va yuksak texnologiyalar asrida jahon adabiyotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, ularning millat adabiyotiga ta'siri haqida o'zining tahliliy, tanqidiy mulohazalarini bayon eta bilish malakasiga ega bo'lishi lozim. 	<p>http://www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti. http://www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti. www.natlib.uz - (A.Navoiy nomidagi O'z.MK) www.zyonet.uz - Zyonet axborot-ta'lim resurslari portal www.espi.uz – Chirchiq davlat pedagogika universiteti rasmiy sayti</p>
4.	<p>VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> ma'ruzalar; interfaol keys-stadilar; seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); guruhlarda ishlash; taqdimotlarni qilish; individual loyihalar; jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar 	<p>7. Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024-yil “<u>29 ” 08 -soni</u>” dagi qarori bilan tasdiqlangan</p>
5.	<p>IX. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>	<p>8. Fan/modul uchun ma'sul: U.Shermatova - Chirchiq davlat pedagogika universiteti “O'zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi dotsenti v.b. pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori</p> <p>9. Taqrizchilar: N.Jabborov - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori R.Rasulova - Chirchiq davlat pedagogika universiteti “O'zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori</p>
6.	<p>X. Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernism va postmodernism. O'quv qo'llanma. - T.: 2017. Ulug'ov A. Jahon adabiyoti (Turkiy xalqlar adabiyoti) – T.: Muhammadi nashriyoti, 2021. <p>XI. Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> Alimuhammedov I. Antik adabiyot tarixi. - T.: 1975. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. - T.: 1979. Qayumov O., Azizov Q. Chet el adabiyoti tarixi. - T.: 1987. Azizov Q., Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. (XVIII-XX asrlar). - T.: “O'qituvchi”, 1987. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. - T.: “O'zbekiston”, 1997. Komilov N. Tafakkur karvonlari. - T.: “Ma'naviyat”, 1999. Mahmudov M. Hayrat va tafakkur. - T., G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990. Sulaymonova F. Shekspir O'zbekistonda. - T.: “Fan”, 1978. Do'stmuhamedov Q. Nobel mukofotini olgan adiblar. - T.: “Ma'naviyat”, 2002. 	